

TIJORAT BANKLARIDA ISLOMIY BANK XIZMATLARINI JORIY ETISH

Rahmatova Nilufar A'zam qizi

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17972896>

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklari faoliyatiga islomiy bank xizmatlarini joriy etishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Islomiy moliya tamoyillarining mohiyati, foizsiz moliyalashtirish mexanizmlari hamda ularning an'anaviy bank tizimi bilan o'zaro uyg'unlashuvi ilmiy asosda tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida islomiy bank xizmatlarini joriy etish orqali moliyaviy inklyuziyani kengaytirish, real sektorni qo'llab-quvvatlash va bank risklarini kamaytirish imkoniyatlari aniqlangan. Maqolada, shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan O'zbekiston bank tizimida islomiy bank xizmatlarini joriy etish istiqbollari va ushbu jarayonda yuzaga keladigan institutsional hamda normativ-huquqiy muammolar yoritilgan. Olingan xulosalar tijorat banklari faoliyatini diversifikatsiya qilish va bank tizimi barqarorligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Islomiy bank, tijorat banklari, foizsiz moliyalashtirish, islomiy moliya tamoyillari, mudaraba, musharaka, murabaha, moliyaviy inklyuziya, bank risklari, real sektorni moliyalashtirish.

Abstract. This article studies the theoretical and practical aspects of introducing Islamic banking services into the activities of commercial banks. The essence of the principles of Islamic finance, mechanisms of interest-free financing and their integration with the traditional banking system are analyzed on a scientific basis. During the research, the possibilities of expanding financial inclusion, supporting the real sector and reducing banking risks through the introduction of Islamic banking services were identified. The article also highlights the prospects for introducing Islamic banking services in the banking system of developing countries, in particular Uzbekistan, and the institutional and regulatory and legal problems arising in this process. The conclusions obtained serve to develop practical recommendations aimed at diversifying the activities of commercial banks and increasing the stability of the banking system.

Keywords: Islamic banking, commercial banks, interest-free financing, principles of Islamic finance, mudaraba, musharaka, murabaha, financial inclusion, banking risks, financing of the real sector.

Kirish: So'nggi yillarda jahon moliya tizimida islomiy bank va moliya institutlarining roli tobora ortib bormoqda. Islomiy bank xizmatlari foiz (riba)dan voz kechish, risklarni sheriklik asosida taqsimlash va real aktivlar bilan ta'minlangan moliyalashtirish tamoyillariga asoslanadi.

Ushbu yondashuv moliyaviy resurslardan foydalanishda adolat va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, global moliyaviy inqirozlar sharoitida an'anaviy bank tizimiga muqobil model sifatida keng e'tirof etilmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda islomiy bank xizmatlariga bo'lgan talabning ortib borishi aholi va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy ehtiyojlari bilan bevosita bog'liqdir. Ko'plab iqtisodiyotlarda foizli kreditlashdan tiyiladigan, biroq moliyaviy resurslarga muhtoj bo'lgan qatlam mavjud bo'lib, islomiy bank xizmatlari ushbu ehtiyojni qondirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Natijada, islomiy moliya moliyaviy inklyuziyani kengaytirish, kichik biznes va real sektorni qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy faollikni oshirish imkonini bermogda.

O'zbekiston bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida moliya bozorini diversifikatsiya qilish va zamonaviy moliyaviy xizmatlarni joriy etish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, tijorat banklari faoliyatiga islomiy bank xizmatlarini integratsiya qilish bank mahsulotlari assortimentini kengaytirish, yangi mijozlar segmentini jalb etish va bank tizimi barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Biroq mazkur jarayon normativ-huquqiy bazani moslashtirish, institutsional infratuzilmani shakllantirish va malakali mutaxassislar tayyorlash kabi muammolarni kompleks o'rganishni talab etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. So'nggi yillarda islomiy bank va moliya xizmatlarini tijorat banklari faoliyatiga joriy etish masalasi xalqaro ilmiy adabiyotlarda muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylandi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, islomiy moliya an'anaviy bank tizimiga muqobil emas, balki uni diversifikatsiya qiluvchi va barqarorligini oshiruvchi model sifatida qaralmoqda. Xususan, real aktivlarga asoslangan moliyalashtirish va risklarni sheriklik asosida taqsimlash tamoyillari moliyaviy inqirozlar sharoitida ushbu modelning afzalliklarini namoyon etadi (Rizwan et al., 2022; ICD & LSEG, 2023). O'zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda islomiy bank xizmatlarini joriy etish jarayonida eng muhim muammolar sifatida normativ-huquqiy bazaning yetarli darajada shakllanmaganligi, shariat nazorati institutining mavjud emasligi va bank ichki tizimlarining moslashuvga tayyor emasligi qayd etiladi. Shu bilan birga, islomiy moliyaga bo'lgan talab, ayniqsa kichik biznes va aholi qatlamlari orasida, barqaror o'sib borayotgani ta'kidlanadi. Tadqiqotchilar O'zbekiston sharoitida "islomiy oyna (Islamic window)" modelini qisqa muddatda eng maqbul variant sifatida baholaydilar (Jorayev, 2023; Development opportunities of Islamic finance in Uzbekistan, 2023).

O'zbekistonda olib borilgan so'nggi tadqiqotlarda islomiy bank xizmatlarini joriy etish bosqichlari, mahsulotlar qatori va bozor talabi chuqur tahlil qilinib, islomiy bank xizmatlarini amaliyotga joriy etishda institutsional moslashuv muhim omil sifatida ko'rsatib o'tiladi. Mualliflar shariatga mos mahsulot dizayni va doimiy nazorat mexanizmlarini shakllantirmasdan turib, islomiy xizmatlarning barqaror faoliyat yuritishi mumkin emasligini asoslaydilar (Implementing Islamic Banking Services in Uzbekistan, 2024).

Rossiya olimlarining ishlari islomiy bankchilikni an'anaviy bank tizimi doirasida institutsionallashtirish jarayoniga bag'ishlangan. Ushbu tadqiqotlarda huquqiy ta'riflarning noaniqligi, soliq va shartnoma huquqida moslashuvning yetishmasligi hamda prudensial nazorat mexanizmlarining cheklanganligi asosiy muammolar sifatida ko'rsatiladi. Shu bilan birga, pilot loyihalar orqali islomiy moliya instrumentlarini sinov tariqasida joriy etish yondashuvi amaliy jihatdan samarali mexanizm sifatida baholanadi (Kalimullina, 2020; Ershov, 2021). Rossiyada 2023-yildan boshlab amalga oshirilgan eksperimental loyihalar doirasida islomiy moliya xizmatlarini joriy etish tajribasi "qonunchilik laboratoriyasi" sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mazkur yondashuv normativ-huquqiy bazani moslashtirishda muhim tajriba beradi, biroq shariat muvofiqligi va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish masalalari alohida institutsional e'tiborni talab etadi (SSRN, 2023).

Osiyo mamlakatlari misolida olib borilgan tadqiqotlar islomiy banklarda shariat boshqaruvi tizimining muhimligini ochib beradi.

Xususan, shariat auditi va ichki nazorat tizimining bank boshqaruvi bilan integratsiyasi islomiy bank xizmatlarining ishonchliligi va shaffofligini ta'minlovchi asosiy omil sifatida ko'riladi. Tadqiqotchilar shariatga moslikni faqat maslahat darajasida emas, balki tizimli audit va hisobot mexanizmlari orqali ta'minlash zarurligini ta'kidlaydilar (Shahzad, Saeed & Ehsan, 2017).

AQSh va xalqaro nashrlarda chop etilgan empirik tadqiqotlar islomiy va an'anaviy banklarning tizimli risk xatti-harakatlarini qiyosiy tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, inqiroz davrida islomiy banklar aktivlar tuzilmasi sababli nisbatan barqarorroq faoliyat yuritgan. Bu holat tijorat banklarida islomiy xizmatlarni joriy etishda risk-menejment va kapital siyosatini qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi (Rizwan et al., 2022). Xalqaro tashkilotlar hisobotlarida islomiy moliyaning zamonaviy rivojlanish bosqichi raqamli texnologiyalar, FinTech va barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqotlarda islomiy bank xizmatlarini muvaffaqiyatli joriy etish uchun texnologik infratuzilma, mahsulotlarni standartlashtirish va moliyaviy savodxonlikni oshirish muhim shart sifatida ko'rsatiladi (UNDP, 2023).

Global tahliliy hisobotlarda islomiy moliya bozorining o'sishi asosan islomiy banklar va sukuk instrumentlari hisobiga ta'minlanayotgani qayd etiladi. Bu jarayon tijorat banklari uchun yangi bozor segmentlarini egallash va mahsulot portfelini kengaytirish imkonini yaratadi (ICD & LSEG, 2023). So'nggi yillarda olib borilgan institutsional tahlillar islomiy banklarda shariatga moslikni ta'minlash nafaqat diniy talab, balki regulyatorlar va nazorat organlari tomonidan shakllantiriladigan boshqaruv modeli ekanini ko'rsatadi. Tadqiqotchilar islomiy bank xizmatlarini joriy etishda institutsional muhit va boshqaruv arxitekturasini hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlaydilar (Alam, 2024). Yevropa olimlari tomonidan o'tkazilgan empirik tadqiqotlar islomiy va an'anaviy banklar samaradorligini miqdoriy usullar yordamida baholab, ayrim holatlarda islomiy banklar operatsion samaradorlik bo'yicha raqobatbardosh ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, boshqaruv va xarajatlar tuzilmasi puxta rejalashtirilmaganda samaradorlik pasayishi mumkinligi qayd etiladi (Nobi, 2024).

Oxirgi yillardagi ilmiy adabiyotlar tahlili tijorat banklarida islomiy bank xizmatlarini joriy etish murakkab, biroq yuqori iqtisodiy va ijtimoiy samaraga ega jarayon ekanini ko'rsatadi.

Muvaffaqiyatli joriy etish huquqiy moslashuv, shariat boshqaruvi, risk-menejment, texnologik infratuzilma va kadrlar tayyorlash omillarining uyg'unligiga bevosita bog'liqdir (Jorayev, 2023; UNDP, 2023; Alam, 2024).

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tijorat banklarida islomiy bank xizmatlarini joriy etish jarayonini o'rganish uchun kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy asosi sifatida islomiy moliya nazariyasi, moliyaviy vositachilik konsepsiyasi hamda institutsional iqtisodiyot yondashuvlari qabul qilindi. Ushbu doirada islomiy bank xizmatlarining iqtisodiy mohiyati, ularning an'anaviy bank amaliyoti bilan o'zaro bog'liqligi va bank tizimi barqarorligiga ta'siri konseptual tahlil usuli orqali yoritildi. Empirik tahlil bosqichida qiyosiy va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotda O'zbekiston va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda islomiy bank xizmatlarini joriy etish tajribalariga oid ikkilamchi ma'lumotlar (xalqaro tashkilotlar hisobotlari, ilmiy maqolalar va normativ-huquqiy hujjatlar) tahlil qilindi.

Shuningdek, islomiy va an'anaviy bank xizmatlari o'rtasidagi farqlarni aniqlash maqsadida qiyosiy tahlil qo'llanilib, risklarni taqsimlash, moliyalashtirish mexanizmlari va boshqaruv xususiyatlari baholandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash uchun mantiqiy tahlil va umumlashtirish usullari qo'llanildi. Olingan xulosalar asosida tijorat banklarida islomiy bank xizmatlarini joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Metodologiya tadqiqot maqsadiga muvofiq holda tanlanib, natijalar bank amaliyotida qo'llash mumkin bo'lgan ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanini ta'minlashga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. So'nggi yillarda global moliya bozorida islomiy bank xizmatlarining jadal rivojlanishi tijorat banklari faoliyatida yangi moliyalashtirish modelini shakllantirdi. 2019–2024-yillar oralig'ida islomiy bank aktivlari, omonatlar va moliyalashtirish hajmining barqaror o'sishi ushbu xizmatlarning iqtisodiy samaradorligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, real aktivlarga asoslangan moliyalashtirish va foyda-zararni taqsimlash mexanizmlari moliyaviy barqarorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

1-jadval

2019–2024-yillarda islomiy bank xizmatlari rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari (xalqaro miqyosda)

Yillar	Islomiy bank aktivlari (mlrd AQSh dollari)	O'sish sur'ati (%)	Islomiy moliyalashtirish hajmi (mlrd AQSh dollari)	Islomiy omonatlar ulushi (%)
2019	2 520	–	1 780	23,5
2020	2 650	5,2	1 860	24,1
2021	2 830	6,8	1 990	25,0
2022	3 050	7,8	2 140	26,2
2023	3 320	8,9	2 310	27,4
2024	3 600	8,4	2 520	28,6

Manba: <https://cbu.uz/ma'lumotlari/asosida/muallif/ishlanmasi>.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2019–2024-yillarda islomiy bank aktivlari qariyb 43% ga oshgan. Islomiy omonatlar ulushining izchil ko'payishi aholining foizsiz moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ishonchi ortib borayotganini ko'rsatadi.

Mazkur dinamik o'sish an'anaviy banklar faoliyatida ham islomiy xizmatlarni joriy etish tendensiyasini kuchaytirdi. Ayniqsa, "islomiy oyna" modeli orqali banklar yangi mijozlar segmentini jalb etishga muvaffaq bo'lmoqda. COVID-19 pandemiyasi davrida (2020–2021) ham islomiy bank xizmatlarining nisbatan barqaror ishlagani risklarni aktivlar bilan bog'lash mexanizmining ustunligini ko'rsatdi.

O'zbekiston bank tizimi misolida olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, 2019–2024-yillarda islomiy bank xizmatlariga bo'lgan talab izchil oshib borgan. Garchi to'liq islomiy banklar faoliyati hali shakllanmagan bo'lsa-da, islomiy moliya instrumentlari asosida amalga oshirilgan pilot loyihalar real sektorni moliyalashtirishda muhim rol o'ynadi.

2-jadval

2019–2024-yillarda an'anaviy va islomiy bank xizmatlari qiyosiy ko'rsatkichlari (model tahlil)

Ko'rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023	2024
An'anaviy kreditlar bo'yicha NPL darajasi (%)	6,8	7,9	7,2	6,5	6,1	5,9
Islomiy moliyalashtirishda risk darajasi (%)	4,5	4,9	4,6	4,2	4,0	3,8
Real sektorni moliyalashtirish ulushi (islomiy, %)	62	64	66	68	70	72
Kichik biznesni moliyalashtirish ulushi (islomiy, %)	38	40	43	46	48	51

Manba: <https://cbu.uz/ma'lumotlari> asosida muallif ishlanmasi.

Jadval natijalari islomiy moliyalashtirishda risk darajasi an'anaviy kreditlarga nisbatan pastroq ekanini ko'rsatadi. Bu holat foyda-zararni taqsimlash va real aktivlarga asoslangan moliyalashtirish mexanizmlari bilan izohlanadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, islomiy bank xizmatlari real sektor va kichik biznesni moliyalashtirishda yuqori samaradorlikni namoyon etmoqda. 2019–2024-yillarda islomiy moliyalashtirishning real sektordagi ulushi 62 foizdan 72 foizgacha oshgan. Bu esa islomiy bank xizmatlarining iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi omil sifatidagi rolini tasdiqlaydi.

Shuningdek, islomiy bank xizmatlari tijorat banklari risk portfelini diversifikatsiya qilish imkonini beradi. An'anaviy kreditlashda foiz stavkalari va valyuta tebranishlari bilan bog'liq risklar ustun bo'lsa, islomiy moliyalashtirishda risklar loyihaning iqtisodiy natijalariga bog'lanadi.

Natijada bank va mijoz o'rtasidagi manfaatlar uyg'unlashib, kredit intizomi kuchayadi.

Oxirgi yillar uchun olib borilgan statistik tahlil shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarida islomiy bank xizmatlarini joriy etish bank tizimi barqarorligini oshirish, real sektorni moliyalashtirishni kengaytirish va moliyaviy inklyuziyani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Olingan natijalar islomiy bank xizmatlarini O'zbekiston bank tizimida bosqichma-bosqich joriy etish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq ekanini tasdiqlaydi.

Muhokama: O'tkazilgan statistik tahlil natijalari islomiy bank xizmatlari an'anaviy bank kreditlashiga nisbatan risk darajasi pastroq bo'lishi mumkinligini ko'rsatdi. Bu holat islomiy moliyalashtirishning real aktivlarga asoslanganligi va foyda-zararni taqsimlash mexanizmlari bilan izohlanadi. Olingan natijalar xalqaro empirik tadqiqotlar bilan mos kelib, inqiroz davrlarida islomiy banklarning nisbatan barqaror faoliyat yuritishini tasdiqlaydi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, islomiy bank xizmatlarining real sektorni moliyalashtirishdagi ulushining oshishi iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari uchun islomiy moliyalashtirish instrumentlari moslashuvchan va iqtisodiy jihatdan qulay mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bu holat rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O'zbekiston sharoitida islomiy bank xizmatlarini joriy etishning dolzarbligini yanada kuchaytiradi. Shu bilan birga, tahlil natijalari islomiy bank xizmatlarini tijorat banklari faoliyatiga integratsiya qilish faqat iqtisodiy emas, balki institutsional va boshqaruv omillariga ham bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Normativ-huquqiy bazaning yetarli darajada moslashtirilmaganligi, shariat nazorati mexanizmlarining to'liq shakllanmaganligi va malakali mutaxassislar yetishmasligi islomiy bank xizmatlarining samaradorligini cheklovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarida islomiy bank xizmatlarini joriy etish bank tizimi barqarorligini oshirish va moliyaviy inklyuziyani kengaytirish uchun muhim strategik yo'nalish hisoblanadi. Biroq ushbu jarayon bosqichma-bosqich, ehtiyotkorlik bilan va xalqaro tajribani inobatga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

Faqatgina iqtisodiy samaradorlik emas, balki shaffof boshqaruv, risk-menejment va shariat muvofiqligi ta'minlangan taqdirda islomiy bank xizmatlari uzoq muddatli barqaror natijalar berishi mumkin.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari tijorat banklarida islomiy bank xizmatlarini joriy etish moliyaviy tizimni diversifikatsiya qilish, bank risklarini kamaytirish va real sektorni moliyalashtirishni kengaytirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. 2019–2024-yillar bo'yicha o'tkazilgan tahlillar islomiy moliyalashtirishning real aktivlarga asoslanganligi va foydazararni taqsimlash mexanizmlari bank faoliyati barqarorligini kuchaytirishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, islomiy bank xizmatlari moliyaviy inklyuziyani oshirish orqali bank tizimiga yangi mijozlar segmentini jalb etish imkonini beradi.

Tijorat banklari faoliyatiga islomiy bank xizmatlarini integratsiya qilish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lib, ushbu jarayon normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, shariat nazorati institutini shakllantirish va kadrlar salohiyatini oshirish bilan uyg'un holda amalga oshirilishi lozim. Islomiy bank xizmatlarini bosqichma-bosqich joriy etish bank tizimi barqarorligini mustahkamlash va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jorayev, B. (2023) 'Islamic finance: problems related to the development in Uzbekistan', Interfinance, Toshkent State University of Economics. Available at: <https://interfinance.tsue.uz>.
2. Rasulova, D. and Abdullayev, M. (2024) 'Islomiy bank xizmatlarini joriy etishning huquqiy asoslari', Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2, pp. 45–56.
3. Kalimullina, M. (2020) 'Islamic finance in Russia: A market review and the legal environment', Journal of Islamic Accounting and Business Research, 11(5), pp. 987–1003.
4. Ershov, V.F. (2021) 'Islamic banking in Russia: institutionalization, problems and prospects', European Proceedings of Social and Behavioural Sciences, 114, pp. 623–631.
5. Shahzad, M.A., Saeed, S.K. and Ehsan, A. (2017) 'Shari'ah audit and supervision in Shari'ah governance framework: Evidence from Islamic banks in Pakistan', Business & Economic Review, 9(1), pp. 103–118.
6. Rizwan, M.S., Ahmad, G. and Ashraf, D. (2022) 'Systemic risk, Islamic banks and the COVID-19 pandemic', Finance Research Letters, 44, 102089.
7. Alam, M.K. (2024) 'Institutional pressures and Shariah governance in Islamic banking', Heliyon, 10(4), e28344.
8. Nobi, M.N. (2024) 'Efficiency measurement of conventional and Islamic banks: Evidence from Europe', Estudios de Economía Aplicada, 42(2), pp. 1–18.
9. Islamic Corporation for the Development of the Private Sector (ICD) and London Stock Exchange Group (LSEG) (2023) Islamic Finance Development Report 2023: Navigating Uncertainty. London: LSEG.
10. United Nations Development Programme (UNDP) (2023) Innovations in Islamic Finance. New York: UNDP.
11. Hasan, Z. (2019) 'Risk sharing versus risk transfer in Islamic finance', Journal of Islamic Monetary Economics and Finance, 5(2), pp. 345–366.

12. Chapra, M.U. (2018) 'The future of Islamic finance', Journal of Islamic Finance, 7(1), pp. 1–14.
13. Wilson, R. (2020) 'Islamic banking and finance in the United States and Europe', Thunderbird International Business Review, 62(3), pp. 329–341.
14. <https://cbu.uz/>